

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024/6-SON
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Ч.Х.Чамолов	
Ифодаи мағхуми ишқ дар шеъри фарзона	435
Е.В.Шевченко	
Особенности историзма в романах пирамкула кадырова	439
Я.И.Нишанов	
Общечеловеческое значение сюжета, касающийся всего человечества.....	441
E.R.Adjemina	
Phraseological image and motivational model	444
Н.Д.Ирина	
Влияние философии Ницше на русскую литературу начала XX века.....	447
Н.Д.Ирина	
Литературный стиль и философские идеи в произведениях Франца Кафки: Абсурд, отчуждение и экзистенциальный кризис.....	453
Я.И.Нишанов	
Место и роль воспевания самой прекрасной истории в творчестве Дурбека	457

TILSHUNOSLIK

I.M.Qo'chqarov	
The grammatical features of speech acts in english	460
A.Z.Nurbek	
O'zbek tilshunosligida nutqiy aktlarga doir tadqiqotlar: usul va yondashuvlar	464
S.A.Yusupova	
Pragmatic use of respect in various communicative contexts	471
S.A.Yusupova	
linguistic expressions of respect in english and japanese	474
Sh.Y.Usmonova	
Comparative study of landscape terms in english and uzbek	477
M.K.Uktamova	
The main components expressing the meaning of the seme "Character" in english phraseological units	480
D.X.Madazizova	
Badiiy diskursda dialektlar individual nutq yaratuvchi vosita sifatida	483
Sh.B.Karimova	
O'zbek va ingliz tillaridagi son komponentli frazeologizmlarda kvantitativlikning ifodalanishi ..	488
Sh.B.Karimova	
O'zbek tili va ingliz tillarida kvantitativlik birliklarining sathlararo tahlili	495
Sh.R.Karimjonova	
Semantic analysis of visual cognitive verbs in uzbek and english	500
Sh.B.Dushatova	
Euphemisms representing hidden and mysterious concepts	507
Sh.T.Axmadjonova	
Definition and components of comprehension skills	511
Sh.M.Aripova	
Linguocultural analysis of superstitions	515
Sh.M.Aripova	
O'zbek va nemis tillarida irim-sirimlari bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi leksemalar tahlili	519
Y.U.Abdurazzakov	
Frazeologik birliklarda jinsiy va yosh identifikatsiyasi: til va madaniyatning o'zaro aloqasi	522
N.X.Alieva	
Interlingual correspondence as a factor in enriching phraseology and identifying isomorphism and allomorphism of languages	525
R.U.Axrorova, M.T.Mamadaliyeva	
O'zbek amaliyotida turistik atamalarni standartlashtirishda ingliz tilining o'mni	530
M.S.G'aniyeva	
O'zbekiston ijtimoiy transformatsiyalashuvi jarayonida gender munosabatlari hamda tadbirkor ayol fenomenining falsafiy talqini	533



УО'К: 81'373.21:398.21

**O'ZBEK VA NEMIS TILLARIDA IRIM-SIRIMLARI BILAN BOG'LIQ
TUSHUNCHALARINI IFODALOVCHI LEKSEMALAR TAHLILI**

**АНАЛИЗ ЛЕКСЕМ, ОБОЗНАЧАЮЩИХ ПОНЯТИЯ, СВЯЗАННЫЕ С
СУЕВЕРИЯМИ В УЗБЕКСКОМ И НЕМЕЦКОМ ЯЗЫКАХ**

**ANALYSIS OF LEXEMES REPRESENTING CONCEPTS RELATED TO
SUPERSTITIONS IN UZBEK AND GERMAN LANGUAGES**

Aripova Shodiyaxon Maxmudovna
Farg'ona davlat universiteti, o'qituvchi

Annotatsiya

Mazkur maqolada nemis va o'zbek tillaridagi irim-sirimlarning lingvistik va madaniy xususiyatlari o'rganilgan. Irim-sirimlar xalq madaniyatida o'ziga xos o'rinn egallagan bo'lib, ular pand-nasihat, diniy e'tiqod va xalq hayotiy tajribasining o'zaro uyg'unlashgan ifodasıdır. Tadqiqotda o'zbek va nemis tillarida uchraydigan irimlarning tarixi va tasnifi tematik guruhlarga bo'lingan holda tahlil qilingan. Irimlarning diniy ildizlari, jumladan, nasroniylik va islam dinidagi ta'sirlar alohida ko'rib chiqilgan. Nemis xalqida 13-raqamga xos bo'lgan irimlar va o'zbek xalqida uchraydigan "juma kuni" haqidagi tasavvurlar o'rtasidagi bog'liqlik taqqosisi metod asosida o'rganilgan. Irim-sirimlarning lingvistik tahlili ularning turli madaniyatlarda o'ziga xos shakllanish jarayonini ochib bergan.

Mazkur tadqiqot xalq og'zaki ijodi va milliy urf-odatlarning lingvistik va madaniy jihatlarini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Maqola xulosasiga ko'ra, irim-sirimlar xalqning ko'p asrlik tajribasini ifoda etadi va ulami ilmiy o'rganish kelgusidagi tadqiqotlar uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Аннотация

В данной статье исследуются лингвистические и культурные особенности суеверий в немецком и узбекском языках. Суеверия занимают важное место в народной культуре, отражая сочетание нравоучений, религиозных верований и жизненного опыта народа. Исследование включает анализ истории и классификации суеверий в узбекском и немецком языках, сгруппированных по тематическим категориям. Особое внимание удалено религиозным корням, включая влияние христианства и ислама. Проведен сравнительный анализ суеверий, связанных с числом 13 в немецкой культуре, и представлений об «неблагоприятной пятнице» в немецких традициях. Лингвистический анализ показывает уникальные процессы формирования суеверий в разных культурах.

Данное исследование имеет важное значение для изучения лингвистических и культурных аспектов народного творчества и национальных обычаяев. В заключении подчеркивается, что суеверия отражают многогранный опыт народа и их научное изучение создает основу для дальнейших исследований.

Abstract

This article explores the linguistic and cultural characteristics of superstitions in German and Uzbek languages. Superstitions hold a significant place in folk culture, representing a blend of moral teachings, religious beliefs, and people's life experiences. The study analyzes the history and classification of superstitions in Uzbek and German, organized into thematic categories. Special attention is given to their religious roots, including influences from Christianity and Islam. A comparative analysis of the superstition surrounding the number 13 in German culture and the perception of "Friday the 13th" in German traditions has been conducted. The linguistic analysis reveals the unique development of superstitions in different cultures.

This research holds importance for understanding the linguistic and cultural dimensions of oral folklore and national customs. The conclusion emphasizes that superstitions encapsulate centuries of collective experience and provide a foundational basis for further scholarly exploration.

Kalit so'zlar: irim-sirimlar, o'zbek tili, nemis tili, folklor, xalq og'zaki ijodi, madaniy o'ziga xoslik.

Ключевые слова: суеверия, узбекский язык, немецкий язык, фольклор, народное творчество, культурная специфика.

Key words: Superstitions, Uzbek language, German language, folklore, oral traditions, cultural distinctiveness.

KIRISH

Irim-sirimlar asrlar davomida turli madaniyatlardagi xalq hayotida muhim o'rinni egallagan. Ular xalq og'zaki ijodi janrlaridan biri sifatida har bir millatda o'ziga xos shakllarda namoyon bo'ladi. Nemis va o'zbek tillaridagi irimlarning madaniy va lingvistik o'ziga xosliklarini o'rganish ilmiy jihatdan yangi va qiziqarli mavzu hisoblanadi. Ushbu tadqiqot mazkur tillardagi irimlarning tarixi, tasnifi va tarbiyaviy ahamiyatini tahlil qilishga qaratilgan.

Irim-sirimlarning xalq madaniyatida tutgan o'mni nafaqat ijtimoiy-amaliy hodisa sifatida, balki lingvistik jihatdan ham qiziqarli o'rganish obyekti hisoblanadi. Ushbu tadqiqotning ahamiyati shundaki, u ikki madaniyatda uchraydigan irimlarni lingvistik va madaniy jihatdan qiyoslash orqali ularning umumiy va farqli tomonlarini ochib beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqotda nemis va o'zbek tillaridagi irim-sirimlarning lingvistik va madaniy xususiyatlari komparativ metod asosida tahlil qilindi. Ma'lumotlar manbasi sifatida quyidagi asosiy materiallardan foydalanildi:

folklor asarlar;

lug'atlar (masalan, o'zbek tilining izohli lug'ati va nemis tilining "Das Bedeutungwörterbuch" lug'ati) [4];

diniy afsonalar va rivoyatlar [5; 6].

Irimlar tematik guruqlar asosida tasniflanib, ularning tarixiy ildizlari va madaniy mazmuni aniqlashga alohida e'tibor qaratildi. Shuningdek, dotsent F.Isomiddinov hamda I.Yusufovlar tomonidan yozilgan "Irim-sirimlar" uslubiy qo'llanmasi [1] va Mahmud Sattorning "O'zbek udumlari" kitobi [2] ham mazkur tahlilning muhim manbalari bo'lib xizmat qildi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Nemis va o'zbek tillaridagi irimlarning tasnifi, mazmuni va tarbiyaviy ahamiyati quyidagi asosiy yo'nalishlarda tahlil qilindi:

Lingvistik izohlar va leksik birlıklar:

O'zbek tilidagi "irim" so'zi xalq orasida "irim-sirim", "irim-chirim" kabi shakllarda ishlatalishi kuzatiladi. Bu leksik birlıklarning izohli lug'atlardagi ta'riflari bir necha jihatdan bir-biriga mos keladi [3, 540].

Nemis tilidagi "Aberglaube" ("xurofot") tushunchasi esa g'ayritabiyy kuchlar bilan bog'liq noto'g'ri e'tiqodlarni ifodalaydi [4, 21].

Madaniy va diniy ta'sirlar:

Nemis madaniyatida oyning 13-kuni juma bilan mos kelishi noxush kun sifatida talqin qilinadi. Bu rivoyatning ildizlari nasroniy dinidagi "Odam Ato va Momo Havo" voqealar bilan bog'lanadi.

O'zbek madaniyatida esa irimlar ko'pincha xalqning hayotiy tajribasi va diniy e'tiqodlari bilan bog'liq bo'lib, ular yaxshi yoki yomon niyatlarning amalga oshishiga ishonish bilan ifodalanadi [5, 6].

Tarixiy va diniy kontekstlar:

O'zbek va nemis xalqlaridagi 13-sanaga oid irimlarning kelib chiqishi diniy voqealar bilan bog'liq. Masalan, nasroniyarda 13-raqamning omadsiz sanalishi, muslimmonlar orasida juma kuni 13-sanaga to'g'ri kelganida baxtsizlikni anglatishi tarixi diniy rivoyatlarga asoslangan.

Tarbiyaviy ahamiyat:

Irim-sirimlar pand-nasihat janrlariga yaqin bo'lsa-da, ularning farqli tomoni shundaki, ular mantiqiy xulosaga emas, balki bashoratlari ishonchlarga tayanadi.

Nemis va o'zbek tillaridagi irim-sirimlar xalqning madaniy va diniy qadriyatlarini ifoda etadi. Mazkur irimlarning madaniy mazmuni, asosan, xalqning hayotiy tajribasiga asoslangan bo'lsa-da, ularda ko'p asrlik diniy ta'sir ham seziladi. Tadqiqot davomida aniqlanganidek, nemis madaniyatidagi "13-raqam" bilan bog'liq irimlar ko'proq nasroniy dinining ta'siri ostida shakllangan. O'zbek madaniyatidagi irimlar esa ko'proq diniy e'tiqod va milliy udumlar bilan bog'liq.

Irim-sirimlar xalq og'zaki ijodining muhim elementi bo'lib, ular nafaqat folklor asarlarida, balki zamonaqiy adabiyotda ham o'z aksini topmoqda. A.Oripov, I.Mirzo va Oybek asarlarida irimlar nasriy va she'riy shakllarda uchraydi.

Masalan,

TILSHUNOSLIK

*Shukurlar deyman-u, ko'zim yoshlayman,
Jajji nabiralar mehriga qona.*

Irim, deb ummonga tanga tashlayman,

Zora, qaytib kelsam sen tomon yana. (A.Oripov, Ummon bo'yidagi o'ylar)

Xalq orasida bu atamaning "irim-sirim", "irim-chirim" kabi shakllaridan foydalaniadi.

IRIM-SIRIM Har-xil irimlar. [3; 540] Bechora onamning qistovi bilan eskicha **irim-sirim** qilib, nomi chiqqanki mulla-baxshi-parixonlarga ixlos qilib, eshiklarida haftalab yotib yurdik. (I.Mirzo, Bonu, o'ttiz sakkizinch maktub)

IRIM-CHIRIM ayn. **irim-sirim**. [3; 540] Shu qorda domлага borish nimasi?! Har balo oyimdan chiqadi. **irim-chirim** bo'lsa bas.

(Oybek, Tanlangan asarlar)

Bunday adabiy namunalar irimlarning madaniy ahamiyatini yanada ochib beradi.

XULOSA

Irim-sirimlar xalq madaniyatining ajralmas qismi sifatida millatning tarixiy, diniy va lingvistik merosini ifoda etadi. Ularning o'rganilishi nemis va o'zbek tillarida mavjud bo'lgan lingvistik va madaniy o'xshashliklar hamda farqlarni ochishga xizmat qiladi. Ushbu tadqiqot natijalari irimlarning kelib chiqishi va mazmunini kengroq anglash imkonini beradi hamda ularni zamonaviy madaniy hodisalar kontekstida ko'rib chiqish uchun zamin yaratadi.

Tadqiqot davomida irim-sirimlarning ilmiy tahlili ularning madaniy mazmunini anglash va tarbiyaviy ahamiyatini aniqlash uchun asos bo'lib xizmat qildi. Mazkur yo'nalishdagi izlanishlar kelgusida yanada chuqurroq tadqiqotlar olib borishga zamin yaratadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Isomiddinov F., Yusufov I. Irim-sirimlar. Uslubiy qo'llanma. – Farg'onan: Classic, 2020. – 97 b.
2. Sattor M. O'zbek udumları. – Toshkent: Adolat, 2004. – 205 b.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. II jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023.
4. Wolfgang M., Duden "Bedeutungswörterbuch". – Mannheim, 1985. – S.21.
5. Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. Ислом тарихи. Одамнинг яратилиши, ISLOM.UZ (Мурожаат санаси 24.01.2021)
6. Одамлар ишонадиган ирим-сиримлар ва уларнинг келиб чиқиши Hordiq.uz. (Мурожаат санаси 24.01.2021)